

**CANVA DASTURIY VOSITASIDAN FOYDALANIB MOBIL
QURILMALAR UCHUN TAQDIMOTLAR TAYYORLASHNING
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**

Narkulov Odil Oltinbekovich

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonini axborotlashtirish ya'ni professor-o'qituvchilarning dars berish jarayonida Canva dasturiy vositasidan foydalangan holda ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlari uchun taqdimotlar tayyorlashning afzalliklari hamda ushbu taqdimotlarni bevosita mobil qurilmaning o'zida to'g'ridan-to'g'ri tayyorlash mumkinligi haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar.** Canva, mobil qurilma, noutbuk, planshet, internet, taqdimot, Google akkount, Facebook akkount.*

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish nafaqat texnik, balki ijodiy tarkibiy qismga, boshqacha aytganda, dizayn ishlariga asoslanadi. Taqdimotlar, ma'ruzalar, laboratoriya ishlari, o'z tadqiqotlari va kuzatuvlari asosida infografika, devor gazetalari, dars jadvali - bularning barchasi yuqori sifatli dizaynni, zamonaviy grafik dizaynning xususiyatlarini tushunishni talab qiladi. Aynan shu maqsadda Canva dasturining onlayn grafik dizaynerini ishlab chiquvchilar platformaning ta'lim sohasi uchun maxsus versiyasini yaratdilar.

Canva dasturi kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar va mobil qurilmalar uchun yangi pedagogik dasturiy vosita sifatida o'quv jarayonini (qisman yoki to'liq) avtomatlashtirishga mo'ljallangandir.


Canva - Internet tizimida, masofaviy ta'lim tizimlarida, kompakt disk yoki boshqa har qanday saqlash qurilmalarida ishlatish uchun mo'ljallangan interaktiv ta'lim materiallari (ilovalar uchun taqdimotlar) tayyorlash uchun mo'ljallangan foydalanish oson bo'lgan dasturiy vositadir.

Kompyuterlarda, mobil qurilmalarda yuqori sifatli taqdimotlar, kurslar

tayyorlash muharriri bo'lmish Canva dasturi Avstraliyaning Perth shahrida Melanie Perkins, Cliff Obrecht va Cameron Adamslar tomonidan 2013-yilning 1-yanvarida ishga tushirilgan. Faoliyatining ilk-yilida, Canva foydalanuvchilar soni 750,000 taga yetadi. 2014-yil aprelida, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar bo'yicha ekspert Guy Kawasaki kompaniyaga brendni tanituvchi (Brand Promoter) sifatida qo'shiladi. 2015-yilda, marketing materiallariga ko'proq e'tibor berilgan Canva for Work servisi ishga tushadi. Canva bu grafik dizayn platformasi bo'lib, odamlar unda SMM, posterlar, taqdimotlar, hujjatlar va boshqa vizual ishlarni yaratishda foydalanishadi. Saytda tayyor dizayn qoliplari mavjud. Hozirda Canva dasturining Canva Pro va Canva for Enterprise versiyalari keng qo'llanilmoqda.


Canva dasturiy vositasi - kompyuter hamda mobil texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan dasturiy vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida qo'llaniladi. Canva dasturiy vositasi yordamida mobil ilovalar uchun taqdimotlar yaratish juda qulay. Elektron darsliklar, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda eng muhim tushuncha va qonuniyatlarni tushunish hamda yodda saqlashni maksimal darajada yengillashtiradi.

Canva dasturida taqdimot tayyorlash uchun dastlab canva dasturini ilovasini kompyuter, noutbook, planshet, mobil qurilmaga yuklab olgan bo'lishimiz kerak. So'ngra Canva dasturining ilovasiga kirsak quyidagi (1-Rasm) oyna ochiladi.




1-Rasm. Canva ilovasining dastlabki oynasi.

Ushbu oynaning yuqori chap qismidagi + belgisini ustiga bosganimizda taqdimot turi haqidagi ma'lumotlar chiqadi. Biz o'zimizga keraklisini tanlaymiz (Prezentasiya) va bosganimizda canva ilovasi quyidagi ko'rinishga o'tadi. (2-3-Rasmlar).




2-Rasm. Canva dasturida taqdimot turini tanlash.




3-Rasm. Canva dasturida taqdimot yaratish oynasi.

Biz "Qattiq jismlar fizikasi" fanidan taqdimot yaratishni boshlashimiz mumkin. Shablonlar bo'limiga kirib o'zimizga kerakli shablonni tanlashimiz yoki qidiruv qismiga ushbu fanga oid fizik, jismlar yoki olimlarni ismini yozib qidirish buyrug'ini barsak, fanimizga oid bir necha turdagi shablonlarni taqdim etadi. Shablonlar bo'limidan kerakli shablonni tanlab taqdimotimizning titulini yaratamiz (4-Rasm).




4-Rasm. Canva dasturida taqdimotning sarlavhasi

4-Rasmda taqdimotning tituli tayyorlandi, pastki qismidagi + tugmasini bosib keyingi bo'sh slaydga o'tishimiz mumkin bo'ladi hamda shablon tanlanib mavzu va rejalari tuziladi (5-Rasm).




5-Rasm Canva dasturida taqdimotning 2-slaydi.

Mavzuni kiritib bo'lganimizdan so'ng mavzuni yoritish uchun + tugmasi yordamida keying slaydlarni tayyorlashimiz mumkin (6-Rasm).



6-Rasm. Canva dasturida mavzuning asosiy qismini aks ettiruvchi slayd.


Canva dasturida yaratilayotgan taqdimotimizga rasm, video, animatsiya, immitatsion modellarni ham joylashtirish bo'ladi. Buning uchun navbatdagi slaydga o'tib canva dasturining oynasining chap qismidan yuklash bo'limini tanlashimiz kerak (7-Rasm).



7-Rasm. Canva dasturida rasm, video, audio fayllarni joylashtirish.


7-Rasmda dasturning chap qismiga qarasak, ko'rinadiki rasm, audio, video

fayllarni kompyuter, planshet, mobil telefonlarning xotirasida mavjud fayllarni qo'ysak bo'ladi. Bundan tashqari to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy tarmoqlardan masalan Instagram, FaceBook, Google Ap va xakozo saytlardan olib qo'yish imkoniyati bor. biz dastlab kompyuter, planshet, mobil telefonlarimizning xotirasida bor video fayllarni qo'yish jarayonini ko'ramiz. Buning uchun dasturning chap qismidagi "zagruzka fayla" bandini tanlaganimizda mavzuga oid xotirada mavjud bo'lgan fayllar ro'yhati chiqadi (8-Rasm).



8-Rasm. Canva dasturida qurilmaning xotirasida mavjud rasm, audio, video fayllar ro'yhati.


"Zagruzit fayl" bandini tanlaganimizda chiqqan fayllarni mavzuga taaluqlisini tanlab ustiga ikki marta bossak canva dasturining navbatdagi slaydida biz tanlagan video fayl hosil bo'ladi. Tekst bo'limiga kirib "dobavit podzagalovok" tekstini bosib qo'yilgan video faylimizni pastki qismida qanday jarayon ekanligini yozishimiz ham mumkin bo'ladi (9-Rasm).



9-Rasm. Canva dasturida video formatdagi faylni joylashtirish.


Keyingi qadam Canva dasturida navbatdagi slaydga ijtimoiy tarmoqlardan

to'g'ridan-to'g'ri mavzuga doir fayllarni joylashtirish. Buning uchun navbatdagi slaydga o'tib ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan youtube platformasini ustiga bosganimizda quyidagi oyna ochiladi (10-Rasm).



10-Rasm. Canva dasturida youtube platformasiga o'tish.

10-Rasmning yuqorigi chap qismidagi qidiruv bandiga mavzuning nomini kiritsak "Qattiq jismlarning kristal tuzilishi" deb yozib qidiruv buyrug'ini bersak fanga oid elektron, video darslarni ro'yhatini chiqarib beradi. Biz o'zimizning mavzumizga oid elektron, video darsliklarni ustiga bosib slaydga joylashtirsak bo'ladi (11-Rasm).



11-Rasm. Canva dasturida youtube platformasidan video, elektron darsliklarni joylashtirish.

Xulosa. Canva dasturidan foydalanish darsni tashkil qilishni yaxshilashga, uning shakllarini diversifikatsiya qilishga va talabalar bilimlarini nazorat qilish sifatini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalari o'quv jarayonini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi, o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtiradi hamda talabalar va o'qituvchilarning mustaqil va birgalikdagi ishlarini yuqori ijodiy darajada tashkil etishga imkon beradi. Canva

dasturida taqdimotlar yaratish mobil qurilmalar yordamida bajarish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida qulay va oson tarzda taqdimotlardan foydalanish uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Malik, Aisha* «Canva predstavlyaet ryad novyx funktsiy, v tom chisle neskolko instrumentov na baze iskusstvennogo intellekta»
2. *Lanset, Yaara; sukerman, Erez.* «Obzor Canva: besplatnyy instrument uproshchaet protsess proektirovaniya» . *Mir PK* .
3. *Chau, Devid* «Canva: Startup onlayn-dizayna prisoedinyaetsya k obychno pereotsenennomu klubu «yedinorogov» *«Novosti AVS* .
4. *Djonatan, Shiber* «Avstraliyskiy dizaynerskiy yedinorog Canva priobretaet dva besplatnykh servisa obmena izobrazheniyami i zapuskaet novey fotoprodukt» . *TexK ranch*.
5. *Xenessi, Djeyms.* «Canva anonsirovala mnojestvo novyx produktov, vklyuchaya instrument dlya redaktirovaniya video i obrazovatelnoe predlojenie» .
6. *Bonixadi, Nik.* «Canva vystupit protiv Microsoft i Google». *Sidney Morning Gerald*.
7. *www.canva.com*.